

RESEARCH ARTICLE

Common Words In Urdu And Uzbek

Diyora Mubinova

4th-year Student, Tashkent State University of Oriental Studies Toshkent, Uzbekistan

VOLUME: Special Issue 2026

PAGE: 163-165

Copyright © 2026 European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, this is an open-access article distributed under the terms of the Creative Commons Attribution-Noncommercial-Share Alike 4.0 International License. Licensed under Creative Commons License a Creative Commons Attribution 4.0 International License.

Abstract

This article examines the origins of certain food-related terms in Uzbek and Urdu, their pathways of diffusion, and the historical and cultural factors that contributed to their development. The etymology of words such as "palov," "somsa," "halva," "shorva," "tea," and "dolma" is briefly explained, showing how these terms entered both languages through Arabic, Persian, Turkic, and Chinese influences.

KEY WORDS

Shared vocabulary, etymology, Uzbek language, Urdu language, food names, palov, somsa, halva, shorva, tea, dolma, linguistic connections, cultural influence, historical contact.

INTRODUCTION

Urdu va o'zbek tillari uzoq tarix davomida turli sivilizatsiyalar, madaniyatlar va diniy markazlar ta'sirida shakllangan bo'lsa-da, ularning lug'at tarkibida bir-biriga juda o'xshash bo'lgan ko'plab mushtarak so'zlar mavjud. Mushtarak so'zlar deb ikki yoki undan ortiq tillarda talaffuzi va ma'nosi jihatidan bir-biriga yaqin bo'lgan, kelib chiqishi umumiy bo'lgan leksik birliklarga aytiladi. Bunday so'zlar tillar o'rtasidagi tarixiy yaqinlik, madaniy aloqalar, migratsiya jarayonlari yoki diniy-ta'limiy ta'sir mahsuli hisoblanadi [1].

Urdu va o'zbek tillaridagi mushtarak so'zlar asosan uch manbadan kelib chiqqan:

- arab tili;
- fors tili;
- qadimgi turkiy tillar.

Bu tillardagi so'zlar o'rta asrlarda Markaziy Osiyo va Janubiy Osiyo hududlarida faol madaniy aloqalar, savdo yo'llari va ilmiy markazlar faoliyati sababli keng tarqalgan. Ayniqsa, islom dini kirib kelganda so'ng, Qur'on tilidan olingan ko'plab arabcha so'zlar ikki mintaqada ham bir xil shakl va mazmunda qo'llanila boshlagan. Fors tili esa yillar davomida ham O'zbekistonda, ham Hindiston yarimorolida adabiyot, diplomatiya va saroy tili sifatida katta rol o'ynagan. Natijada, forscha so'zlar ham urdu va o'zbek tillari lug'at tarkibiga chuqur

singib ketgan [1].

Shuningdek, o'zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo'lgani kabi, urdu tilida ham tarixan turkiy sulolalar hukmronligi davrida kirib kelgan qadimgi turkiy elementlar uchraydi. Bu esa ikki til o'rtasidagi yaqinlikni yanada kuchaytirgan. Tarixiy manbalarda temuriylar, boburiylar, turk qabilalarining Janubiy Osiyoga ko'chib o'tishi jarayonida til va madaniyatning ikki tomonlama almashuvi kuchaygani qayd etiladi.

Urdu va o'zbek tillaridagi mushtarak so'zlarni o'rganish nafaqat lingvistik tahlil uchun, balki ikki xalqning o'zaro tarixiy aloqalarini tushunish uchun ham muhimdir. Bunday so'zlar ikki mintaqada o'rtasida nechog'lik kuchli madaniy bog'liqlik bo'lganini ko'rsatib berdi. Tilshunoslikning leksikologiya, etimologiya va qiyosiy tilshunoslik bo'limlari nuqtai nazaridan mushtarak so'zlarni o'rganish ikki til orasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash, lug'at tarkibining boyish jarayonini tushunish, hamda ikki millat o'rtasidagi madaniy aloqalarni kengroq tahlil qilish imkonini beradi.

Ushbu maqolada urdu va o'zbek tillaridagi mushtarak so'zlarning kelib chiqish omillari, tarqalish jarayoni, tarixiy manbalari hamda bunday so'zlar ikki tilning bugungi rivojida tutgan o'rni keng yoritiladi.

آج کل کے ریستورانوں میں مختلف ملکوں کے کھانے آسانی سے مل جاتے ہیں۔ دوپہر کے وقت لوگ عموماً سموسہ اور چائے کے ساتھ ہلکا ناشتہ کرتے ہیں۔ کچھ گھروں میں ناشتے میں حلوہ بھی تیار کیا جاتا ہے، جسے روٹی یا پرائے کے ساتھ کھایا جاتا ہے۔ سردیوں میں گرم شوربہ بہت پسند کیا جاتا ہے کیونکہ یہ جسم کو گرم رکھتا ہے۔ اسی طرح پلاؤ اور کباب جیسے روایتی پکوان بر دعوت میں ضرور شامل ہوتے ہیں۔ یہ تمام کھانے مختلف زبانوں اور ثقافتوں کے اثر سے اردو میں داخل ہوئے ہیں اور آج عام بول چال کا حصہ بن گئے ہیں۔

TAOMLARGA OID MUSHTARAK SO'ZLAR

| | | |
|-------|------|--------|
| Palov | پلاؤ | pula:o |
|-------|------|--------|

"Palov" so'zi o'zbek tiliga forscha "pilav/pilaw" so'zidan kirgan bo'lib, "guruchdan tayyorlangan taom" degan ma'noni bildiradi. So'z turkiy tillarga o'tish jarayonida fonetik jihatdan moslashib "palov" shaklini olgan. Bugungi kunda u o'zbek xalqining milliy taom nomi sifatida mustahkamlangan.

"Palov" so'zi urdu tiliga fors tilidan (pula:v) kirib kelgan. Markaziy Osiyo va Hind-Eron hududidagi tarixiy aloqalar sabab bu taom nomi urduga o'tib, fonetik o'zgarish bilan "پلاو / پلاؤ" (pula/pilao) shaklida mustahkamlangan [4].

| | | |
|-------|-------|---------|
| Somsa | سموسہ | samo:sa |
|-------|-------|---------|

"Somsa" so'zi o'zbek tiliga forscha "samosa / sanbosag" so'zidan kirgan. Bu taom nomi qadimda Eron, Markaziy Osiyo va Hind hududlarida tarqalgan bo'lib, vaqt o'tishi bilan fonetik o'zgarish orqali o'zbek tilida "somsa" shakliga aylangan.

Urdu tilidagi "samosa/سموسہ" so'zi ham forscha "samosa / sanbosag" dan olingan. Forsiy madaniy ta'sir va tarixiy savdo aloqalari sabab bu so'z Hindiston-Pokiston hududiga kirib, urdu tilida "سموسہ" shaklida mustahkamlanib qolgan [4].

| | | |
|-------|------|--------|
| Holva | حلوا | halva: |
|-------|------|--------|

"Holva" so'zi o'zbek tiliga arabcha "halwā (حلوى)" — "shirin taom" so'zidan kirgan. Islom madaniyati va arab tili ta'siri orqali Markaziy Osiyoga tarqalib, o'zbek tilida "holva" shaklida mustahkamlangan.

Urdu tilidagi حلوا halva: ham arabcha "halwā" dan olingan. Forsiy va arabiy oshxona madaniyati orqali Hind-

Pokiston hududiga kirib, urdu tilida fonetik moslashuv bilan "halwa" sifatida qo'llaniladi [4].

| | | |
|---------|-------|---------|
| Sho'rva | شوربہ | shu:rba |
|---------|-------|---------|

"Sho'rva" so'zi o'zbek tiliga forscha "shorba / shurba" ("sho'rli suyuq taom") dan kirgan. Markaziy Osiyo forsiy ta'siri natijasida so'z o'zbek tilida "sho'rva" tarzida shakllangan.

Urdu tilidagi شوربہ (shorba) bevosita forscha "shorba/shurba" dan kirgan. Taom nomi Hind-Pokiston hududida qadimdan ishlatilib, urdu tilida "shorba" sifatida saqlanib qolgan [4].

| | | |
|------|------|--------|
| Choy | چائے | cha:e: |
|------|------|--------|

"Choy" so'zi o'zbek tiliga xitoycha "茶 — chá" so'zidan kirgan. Ipak yo'li orqali Markaziy Osiyoga tarqalib, o'zbek tilida "choy" shaklini olgan.

Urdu tilidagi چائے (cha:e:) ham xitoycha "chá" dan kelib chiqqan. Savdo yo'llari va Britaniya davri ta'siri orqali Hind-Pokiston hududiga tarqalib, urdu tilida "chai" sifatida umumlashgan [4].

| | | |
|--------|-------|---------|
| Do'lma | ڈولما | Do:lma: |
|--------|-------|---------|

"Do'lma" so'zi o'zbek tiliga turkcha "dolma" ("to'ldirilgan", "ichiga solib to'ldirilgan taom") so'zidan kirgan. Bu taom nomi Usmonli davlati va turkiy madaniy aloqalar orqali Markaziy Osiyoga tarqalib, o'zbek tilida "do'lma" shaklida qo'llanadigan bo'lgan.

Urdu tilidagi ڈولما (dolma) so'zi ham turkcha "dolma" dan kirgan. Bu taom nomi asosan osmonli-turkiy oshxona ta'siri orqali Hind-Pokiston hududiga yetib kelgan va urdu tilida import so'z sifatida "dolma" shaklida qo'llanadi [4].

Xulosa: Ushbu maqolada o'zbek va urdu tillarida uchraydigan mushtarak taom nomlarining kelib chiqishi va tarqalish jarayoni tahlil qilindi. Tadqiqotdan ma'lum bo'lishicha, "palov", "somsa", "holva", "sho'rva", "choy" va "do'lma" kabi so'zlar fors, arab, turk va xitoy tillari orqali ikki tilga kirib kelgan. Bu taom nomlari nafaqat leksik jihatdan, balki tarixiy va madaniy aloqalarni ham aks ettiradi. Shu bilan birga, mushtarak so'zlar ikki xalqning o'zaro madaniy ta'sirini va oshxona an'analari orqali shakllangan umumiy leksik boyligini ko'rsatadi.

Tadqiqot shuni tasdiqladiki, lingvistik va madaniy jihatdan mushtarak soʻzlarni oʻrganish ikki til oʻrtasidagi tarixiy bogʻliqlikni chuqurroq tushunish imkonini beradi va bu sohada kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] – Ansoriddin, I. Urducha–oʻzbekcha mushtarak soʻzlar. Toshkent, n.d.

[2] – Platts, J. T. A Dictionary of Urdu, Classical Hindi and English. London: Oxford University Press, 1990.

[3] – Shukurov, Sh. Oʻzbek tili leksikologiyasi. Toshkent: OʻzMU nashriyoti, 2010.

[4] – Steingass, F. A Comprehensive Persian–English Dictionary. London: Routledge, 1998.

[5] – Urdumashk.com